

## NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING TA'LIM OLISH HUQUQLARI BO'YICHA QONUNCHILIK ASOSLARINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

*Xudoyberdiyeva Gulnura Zokirjon qizi*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishga bo'lgan huquqining huquqiy asoslari mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda nogironligi bo'lgan shaxslar tushunchasi va yuridik tabiati, nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy hujjatlar, nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini himoya qilishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shartnomaviy organlarining roli yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarining ta'minlanishi hamda uning istiqbollari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Konvensiya, ta'lim olish huquqi, inklyuziv ta'lim, nogironligi bo'lgan shaxslar, huquq, chora-tadbir.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini nazarda tutadi. Qabul qilingan "O'zbekiston-2030" strategiyasida ham maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash maqsadi qo'yilgan.

Maktab ta'limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish, muallimlarga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom etmoqda. Kelgusi 7 yillikda bu borada maqsad qilingan rejalar ham mazkur sohadagi islohatlarning uzviy davomi bo'la oladi. Umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish borasida ham qator vazifalar belgilangan. Xususan, olis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo'lga qo'yish; 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish; Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1000 ta multimedia dasturlarini yaratish; ta'lim tashkilotlariga har yili 500 nafar "til egalari" bo'lgan xorijiy mutaxassislarni jalb etish; barcha umumiy

oʻrta taʼlim muassasalarida kasb-hunarlariga oʻrgatish kurslarini joriy etish; Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning taʼlim metodikasini barcha umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining oʻquv jarayonlariga joriy qilish; Maktabgacha taʼlim tashkilotlari va umumiy oʻrta taʼlim muassasalari pedagog xodimlarining oʻrtacha ish haqini 2 barobar oshirish koʻzda tutilgan.

Zamonaviy maktabgacha taʼlim barcha toifadagi bolalar uchun teng taʼlim imkoniyatlarini taʼminlaydigan yangi taʼlim standartlariga asoslanadi. Maktabgacha taʼlim muassasasining taʼlim muhitiga kiritilgan rivojlanishida nuqsoni boʻlgan oʻquvchilar soni har yili koʻpayib bormoqda, bu ularning shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos kelishi kerak. "Inklyuziv taʼlim, oʻquv jarayonini tashkil etish shakli boʻlib, undan foydalangan holda nogiron bolalarni oʻqitish va tarbiyalash umumiy taʼlim dasturlarini normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan yagona oqimda Nogiron bolalar va ularning oilalari uchun mamlakat taʼlim tizimining ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin. Albatta, taʼlim barcha bolalar uchun muhim, ammo nogiron yoki alohida ehtiyojga ega boʻlganlar uchun bu ijtimoiy jihatdan qoniqarli, intellektual ragʻbatlantiruvchi va iqtisodiy samarali hayot va bu fazilatlarining bir nechtasiga ega kelajak oʻrtasidagi farqni anglatishi mumkin. Taʼlim, shuningdek, bolalarning sogʻligʻiga taʼsir qilish potentsialiga ega boʻlib, ularning oʻzlarini himoya qilish, surunkali sogʻliqni saqlash sharoitlarini boshqarish va bolalik davrida va keyingi hayotda murakkab tibbiy, sugʻurta va ijtimoiy xizmatlar tizimlarini boshqarish qobiliyatiga taʼsir qiladi. malga oshiradigan muassasalarda amalga oshiriladi, eng muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalar majmuini hal qiladi" va oʻqituvchilar jamoasining hamkorligiga asoslanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida"gi PF-4947-son Farmoni, 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-2707-sonli, 2017-yil 9-sentyabrda "Maktabgacha taʼlim tizimini tubdan takomillashtirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PQ-3261-sonli, 2019-yil 8-maydagi "Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi PQ-4312-sonli qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha taʼlim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi VMQ-391-son qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlar yuqorida keltirilgan vazifalarning toʻla-toʻkis, kompleks tarzda amalga oshirilishini taʼminlaydi. Bu vazifalarning lozim darajada bajarilishi nogironligi boʻlgan bolalar hayotini taʼlim orqali qamrab olishda, ularni jamiyat muhitiga moslashtirishda kata rol oʻynaydi.

О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda Hukumat qarorlarida nogironligi bo‘lgan shaxslarga davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha bir qator imtiyozlar va qulayliklar yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 14-maydagi **PQ-4319-son** qarorida oliy ta‘lim muassasiga qabul bo‘yicha test sinovlarida ishtirok etish uchun test sinovlari tashkil etilayotgan o‘quv yilidan avvalgi yillarda ta‘lim muassasalarini tugatgan abituriyentlardan bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravari miqdorida to‘lov undirish belgilangan. **Nogironligi bo‘lgan shaxslar mazkur to‘lovdan ozod etilgan.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 1-dekabrda **PF-5270-son** Farmoniga muvofiq kirish imtihonlarida ishtirok etgan nogironligi bo‘lgan shaxslarni oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilishda esa oliy ta‘lim muassasalariga **abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan qo‘shimcha ravishda ikki foizli davlat granti asosidagi kvota** ajratish tartibini joriy etish belgilangan. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta‘lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘shimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 2-iyundagi **417-son qaroriga** asosan bunday imtiyoz toifasi **I va II guruh nogironligi** to‘g‘risida ma‘lumotnomaga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi. **Kirish imtihonlarida to‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ballning 30 foizidan kam bo‘lmagan ball to‘plagan** nogironligi bo‘lgan shaxslar ballar ketma-ketligiga qat‘iy rioya etilgan holda, qo‘shimcha ikki foizli davlat granti kvotalari doirasida talabalikka tavsiya etiladi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-iyundagi 393-son qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida Nizom”ga binoan nogironligi bo‘lgan shaxslar ular uchun alohida ajratilgan kvotalar doirasida tanlovda qatnashib yetarli ball to‘play olmagan va o‘qishga tavsiya etilmagan taqdirda ro‘yxatdan o‘tish jarayonida tanlangan (3 ta) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha tanlovda umumiy tartibda to‘plagan ballari bilan ishtirok etadi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 2-iyundagi 417-son qaroriga binoan oliy ta‘lim muassasalariga qabul bo‘yicha imtihonda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tish jarayonida taqdim etilgan nogironlikni tasdiqlovchi hujjatlar Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan o‘rganib chiqilishi belgilangan. O‘rganish natijalariga ko‘ra nogironligi tasdiqlanmagan shaxslar qo‘shimcha **ikki foizli davlat granti kvotalari** doirasidagi tanlovga qo‘yilmaydi va ro‘yxatdan o‘tish jarayonida tanlangan (3 ta) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha tanlovda umumiy tartibda ishtirok etadi.

2023/2024 yilgi o‘quv yilidan boshlab abituriyentlar uchun mo‘ljallangan qabul tartibiga oid ma‘lumotlar nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulay formatda bo‘lishi

lozim. Bunda videoroliklar surdotarjima yoki subtitrlar bilan namoyish etiladi. Ma'lumki, qabuldan oldingi yillarda o'rta ta'limni tugatgan bitiruvchilar kirish imtihonlarida qatnashish uchun bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravarini (hozir 165 ming so'm) to'lashlari kerak. Lekin nogironligi bor abituriyentlar bu to'lovdan ozod qilingan. Bundan tashqari, nogironligi bor fuqarolarga o'qishga kirishda ham imtiyoz beriladi. Oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy soniga nisbatan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha ikki foizli davlat granti kvotalari ajratiladi. Bu imtiyozdan I va II guruh nogironligi bor fuqarolar foydalanishi mumkin. Qo'shimcha 2 foizli kvota doirasidagi tanlovda qatnashgan, biroq yetarli ball to'play olmagan abituriyentlar boshqalar qatori umumiy kvota doirasidagi tanlovda ishtirok etadi. Qo'shimcha ikki foizli davlat granti kvotalari har bir ta'lim shakli bo'yicha oliy ta'lim muassasalari kesimida ajratiladi va abituriyentlar tomonidan tanlangan 5 ta OTM uchun ham o'rinli hisoblanadi. Grant asosidagi 2 foizlik kvota doirasida talaba bo'lishning yana bir sharti: abituriyent belgilangan maksimal ballning kamida 30 foizini to'plashi kerak. Masalan, ajratilgan kvota doirasida abituriyent to'plagan balli bo'yicha yuqori o'rinda, biroq uning balli 30 foizdan kam bo'lsa, unda abituriyent bu imkoniyatdan foydalana olmaydi. Bu yilgi maksimal ball – 189 ball, uning 30 foizi esa 56,7 ballni tashkil qiladi. Ko'zi ojiz abituriyentlar uchun oliy ta'lim muassasalari tomonidan maxsus imtihon tashkil etiladi. O'tgan yili turli universitetlar uchun 2 foizli kvotaga o'tish ballari qanday bo'lgani bilan Bilim va malakalarni baholash agentligi saytida tanishish imkoni bor. Bundan tashqari, nogironligi bor fuqarolarga 2023/2024 o'quv yilidan "Maxsus pedagogika, defektologiya" yo'nalishida magistratura uchun to'liq davlat granti beriladi. 2023 yilda qabul qilingan prezident qaroriga ko'ra, o'qiyotgan nogironligi bo'lgan talabalarga ta'lim jarayonida ko'maklashish uchun uning yaqinlaridan biriga OTMda yonida birga bo'lish uchun sharoit yaratilishi kerak.

Nogironligi bo'lgan yoshlarni oliy ta'lim doirasida bilim olishlarini yuridik jihatdan ta'minlash maqsadida milliy qonunchilik tizimimizda aniq mexanizmga asoslangan huquqiy asos mavjud. Bu huquqiy asos bevosita nogironligi bor yoshlar ta'limini huquqiy tartibga solishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida Nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ-393-sonli qarorida oliy ta'lim muassasalariga ko'zi ojiz abituriyentlarni o'qishga qabul qilish tartibi borasida ustuvor qoidalar belgilab berilgan. Bu ustuvor jihatlar nogironlik holatlarining ta'lim sohasidagi grantlarga daxldorlik darajasini ochib beradi. Shuningdek, ko'zi ojizlar toifasiga kiruvchi abituriyentlar klassifikatsiyasi masalasida ham aniq yondashuvlarni belgilaydi.

Ko'zi ojizlar toifasiga quyidagi abituriyentlar kiradi:



- maxsus maktab-internatlar tomonidan ko‘zi ojizlar uchun berilgan o‘rta ta‘lim (11-sinf negizida) yetuklik attestatiga ega shaxslar;
- imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari tomonidan ko‘zi ojizlar uchun berilgan diplomga ega shaxslar;
- 9 yillik ko‘zi ojizlar maxsus maktab internatida o‘qigan va 3 yillik o‘rta maxsus, kasb hunar ta‘lim muassasasi diplomiga ega bo‘lgan shaxslar;
- umumiy o‘rta ta‘lim (11-sinf negizida) hujjati yoki akademik litsey (kasb-hunar kolleji) diplomiga ega bo‘lgan ko‘zi bo‘yicha 1-guruh nogironligi to‘g‘risida belgilangan tartibda berilgan shakldagi ma‘lumotnomasiga ega bo‘lgan shaxslar;
- ko‘zi ojiz abituriyentlar oliy ta‘lim muassasalariga kirish chog‘larida kirish imtihonlarini ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi tomonidan test sinovlari uchun belgilangan fanlar majmuasiga mos keluvchi ko‘p balli yoki ularga keltirilgan besh balli baholash tizimi bo‘yicha, an‘anaviy uslubda topshiradilar.

Bugungi kunda ko‘plab nogironlar uchun universitet ta‘limi nafaqat tegishli bilimlarni egallash, balki hayotiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashdan iborat bo‘lishi kerak, o‘z navbatida oliy ta‘lim muassalari buni taqdim etishga tayyor bo‘lishi kerak.

Shu munosabat bilan, inklyuziv ta‘limni yanada rivojlantirish, ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e‘tirof etilishi va belgilangan vazifalarni to‘liq amalga oshirish uchun barcha sharoitlarni yaratish zarur deb hisoblaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga murojaati. 2021-yil 3-dekabr. // <https://president.uz/uz/lists/view/4802>
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz>
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/4646908>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 31-maydagi “Umumta‘lim maktablari o‘quvchilarini darsliklar bilan ta‘minlash tizimini takomillashtirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-362-son Qarori // <https://lex.uz/docs/1004801>
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi «Oliy ta‘lim muassasalariga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi

VMQ-393-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 25-son, 545-modda.

## II. Internet sahifalari

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/31/report/>
2. <http://www.scienceforum.ru>.
3. <http://lex.uz>
4. <https://www.norma.uz>
5. <https://en.wikipedia.org>